



BUXORO SHAHRIDA YASHOVCHI O'SMIRLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI XAVF OMILLARINI TARQALGANLIGINI ERTA ANIQLASH

Olimova G.SH., Istamova A.H.

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston

✓ *Rezumye*

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smir yoshdagilar orasida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishini erta aniqlashda, kasallikni keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud bo'lgan guruhga kiruvchilarda skrining maqsadda siydikda mikroalbumin miqdori aniqlanganda 82 ta usmirdan 65,6% (n= 54) da turli darajadagi MAU borligi kuzatildi. Bu ko'rsatgich SBK tashxisi uchun diagnostik va bir paytning o'zida kasallik zo'rayib borishini ko'rsatuvchi prognostik ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: surunkali buyrak kasalligi, o'smirlar, mikroalbuminuriya, xavf omillari

РАННЕЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФАКТОРОВ РИСКА ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У ПОДРОСТКОВ, ПРОЖИВАЮЩИХ В БУХАРСКОМ РЕГИОНЕ

Олимова Г.Ш., Истамова А.Х.

Бухарский Государственный медицинский институт, Узбекистан

✓ *Резюме*

Результаты анализа показали, что при раннем выявлении прогрессирования хронического заболевания почек среди подростков 65,6% (n= 54) из 82 подростков имели разный уровень MAU, когда уровни микроальбумина были обнаружены в моче для целей скрининга у тех, кто входил в группу с факторами риска, вызывающими заболевание. Этот индикатор имеет диагностическое и одновременно прогностическое значение для диагностики ХБП, указывая на прогрессирование заболевания.

Ключевые слова: хроническая болезнь почек, подростковый возраст, микроальбуминурия, факторы риска

EARLY DETERMINATION OF THE PREVALENCE OF CHRONIC KIDNEY DISEASE RISK FACTORS IN ADOLESCENTS LIVING IN BUKHARA REGION

Olimova G.SH., Istamova A.H.

Bukhara State Medical Institute, Uzbekistan

✓ *Resume*

The results of the analysis showed that in the early detection of the development of chronic kidney disease among adolescents, when microalbumin müdory was detected in the urine for screening purposes in groups with risk factors causing the disease, it was observed that 65.6% (n= 54) of 82 adolescents had different levels of MAU. This pointer is diagnostic for the diagnosis of CKD and has prognostic significance indicating that at one time the disease will progress.

Key words: chronic kidney disease, adolescents, microalbuminuria, risk factors

Dolzarbligi

Surunkali buyrak kasalligi - aholi salomatligi va mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsata oladigan ijtimoiy dolzarb muammolardan biri sanalib, rivojlangan mamlakatlar aholisining deyarli 15% da uchraydi va uning oqibatida kelib chiqadigan SBY bemorlar orasidagi nogironlik va o'lim holatlarining yuqoriligi bilan xarakterlanadi [2]. Bolalar va o'smirlar orasida

surunkali buyrak kasalligining tarqalishi taxminan 11% ni tashkil etadi[4]. Ilmiy tadqiqotlar bu kasallik sabablari 74.6% buyrakning tugma patologiyalari, 24,3% esa orttirilgan nefropatiyalar bilan bog'liqligini ko'rsatgan[5].

Buxoro viloyati hududida SBK tarqalganligini o'rganish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi aholi orasida bu kasallikning uchrash darajasi 11,9% tashkil etadi[1]

Tadqiqot maqsadi: Buxoro shahri hududida yashovchi o'smirlar orasida surunkali buyrak kasalliklari uchrash darajasini aniqlash va keltirib chiqaruvchi xavf omillarini o'rganish, profilaktik chora-tadbirlarini optimallashtirish.

Material va usullar

Buxoro shahridagi 3 va 5-son oilaviy poliklinikalar hududida yashovchi 82 nafar o'smir yoshlar (14-17 yosh): o'g'il bolalar 39ta, qiz bolalar 43 ta, nazorat guruhiga 15 nafar sog'lom o'smirlar jalb qilingan.

Xavf omillari va kasallik belgilarini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnomma Biomateriallar : qon plazmasi va zardobi, siydik (ertalabki o'rta porsiyasi)

Ushbu tadqiqot ishida surunkali buyrak kasalligini keltirib chiqaruvchi xavf omillari sifatida anamnezida proteinuriya, qandli diabet, osteopatiyalar, surunkali yallig'lanish o'choqlari, semizlik, ortiqcha tana vazni, zararli odatlar, yain qarindoshlarida qandli diabet, nefropatiyalar olindi. Shundan 33,8%- boshqariladigan xavf omillari; 52,6% boshqarilmaydigan xavf omillar; 13,6%- boshqariladigan va boshqarilmaydigan xavf omillari tashkil qildi. Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, Buxoro shahridagi 3 va 5 sonli oilaviy poliklinikalar hududida yashovchi o'smirlar orasida surunkali buyrak kasalligi uchrash darajasi va uni kelib chiqishi xavf omillarini o'rgandik.

Tadqiqotga ixtiyoriy tanlab olish usuli bilan 82 ta o'smir eshlar (14-17 yosh) jalb qilindi. O'rganilgan kontingenning 47,6% ni o'g'il bolalar tashkil etib, o'rtacha yosh $14,8 \pm 1,1$ ni tashkil etdi. Qiz bolalar soni 52,8% ni tashkil etib, o'rtacha yosh $15,2 \pm 0,9$.

Surunkali buyrak kasalligi avjudligi va keltirib chiqaruvchi xavf omillarini o'rganish uchun tanlab olingan kontingent orasida "Surunkali buyrak kasalligi va uning xavf omillarini aniqlovchi Anketa-so'rovnomma" (N.Sh. Axmedova, 2017) o'tkazildi. Barcha o'smirlarda siydik mikralbumin miqdori aniqlandi.

So'rovnomma natijalari va mikroalbuminuriya darajasiga karab barcha tekshiriluvchilar 3 guruhga ajratildi: 1 guruh- MAU mavjud emas, ammo SBK keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud (n=24). 2 guruh- mikroalbuminuriya A1-A2 darajasi va SBK keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud (n=19). 3 guruh - mikroalbuminuriya A2-A3 darajasi va SBK mavjud (n=11).

Qon biokimyoviy tahlilida zardobdagi kreatinin miqdori tekshirildi va CKD-EPI formulasi yordamida BKFT aniqlandi. Buyrak koptokchalari filtratsiya tezligi SBK tashxisini ko'yish uchun asosiy diagnostik kriteriy hisoblanadi. Tadqiqotga jalb qilingan o'smir yoshdagilar orasida surunkali buyrak kasalliklari rivojlanishiga olib keluvi xavf omillari va kasallik mavjudligini rganish maqsadida barcha o'smirlarda SBK erta aniqlash imkonini beruvchi laborator diagnostik tekshirishlar o'tkazildi. Bunda qon bioximiyaviy tahlilida: zrdobdagi kreatinin, kalsiy, xolesterin, ZJPLp miqdor va BKFT CKD-EPI formulasi yordamida aniqlandi. Barcha o'smirlarda ertalabki siydikning o'rta porsiyasida mikroalbumin miqdori aniqlandi.

Surunkali buyrak kasalligi xavf omillari aniqlangan o'smirlarda kasallikni erta aniqlash uchun o'tkazilgan laborator diagnostik ko'rsatgichlar tahlili

guruhlar	Kreatinin Mkmol/l	BKFT ml/min/1,73m ²	MAU	kalsiy	xolesterin	ZJPLp
Nazorat guruhi n=15	49,6±3.7	129,2±5.9	5,7±1.2	4,3±1,07	2,5±0.8	1.1±0.5
O'g'il bolalar n=39	89,4±3.8	93,8±3.9	80,2±3.6	2,3±0.6	4,4±0.8	3,3±0.7
Qiz bolalar n=43	83,1±3.5	90,3±3.7	76,5±3.4	1,9±0.5	4,07±0.8	3.1±0.6

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, MAU aniqlangan usmirlarda BKFT o'g'il bolalarda o'rtacha $93,8 \pm 3,2$ ml/min/1.73m² (max- 131- min 88,3) ni tashkil etib, 17,4 % hollarda giperfiltratsiya kuzatildi. O'smir qizlarda esa BKFT o'rtacha ko'rsatgichi $90,3 \pm 3,7\%$ ml/min/1.73m² (max- 133- min 82,6) ni tashkil etib, 10,7 % hollarda giperfiltratsiya mavjudligi aniqlandi ($r > 0,05$).

Shuningdek anamnezida va ko'ruv paytida miopatiya va osteopatiya belgilari aniqlangan o'smirlarda Ca⁺ miqdori kamayganligi aniqlandi.

Bu shuni ko'rsatdiki, surunkali buyrak kasalligi rivojlanish jarayonida osteoporoz va osteopatiya belgilari namoyon bulib, bu belgi o'smir yoshdagilar uchun nefropatiya rivojlanishi ko'rsatuvchi ilk klinik belgilar bo'lishi mumkin.

Qondagi lipidlar miqdori tahlil qilinganda shu aniqlandiki, umumiy xolesterin miqdori me'yor atrofida saqlanib tursada, OTV va semizlik aniqlangan o'smirlarda ZJPLP miqdorining yuqori ekanligi aniqlandi ya'ni o'zil bolalarning 23,4% da va qiz bolalarning 19,8% da aterogen lipoproteidlar miqdori yuqoriligi kuzatildi. Bu o'z navbatida podotsitlarning lipoproteidlarni parchalash faoliyati bo'zilganligidan dalolat berib, SBK rivojlanishi ko'rsatuvchi ilk prediktor sanaladi [7].

Xulosa

Shahar sharoitida yashovchi o'smirlarning 17,3% ida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishining yuqori xavfi mavjud bo'lib, ularning 13 chisida surunkali buyrak kasalligining turli darajalari tashxislandi. olib borilgan tekshirishlar natijasida 13,4% (n=11) da SBKning 1-2 darajalari aniqlandi. O'smir yoshlar orasida surunkali buyrak kasalligini keltirib chikaruvchi xavf omillari uchrash darajasi o'rganilganda, eng kup uchraydigan omillar kuyidagilar ekanligi aniqlandi: ortiqcha tana vazni yoki semizlik (82,5%), anamnezda yoki tekshiruv paytida suyak va mushaklardagi patologik holatlar (osteopatiya belgilari)- 62,8%; anamnezida noaniq etiologiyali proteinuriya (85,4%) va surunkali yallig'lanish o'choqlari mavjudligi, ayniqsa bu yoshdagilarda kariesning ko'p uchrashi (62,6%).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova N.Sh., Shadjanova N.S. Surunkali buyrak kasalliklari erta tashxisotida ambulator sharoitda mikroalbuminuriya aniqlashning ahamiyati // Tibbiyotda yangi kun. – Tashkent, 2018. – № 3. S. 13-15 betlar
2. Borodulin V.B., Protopopov A.A., Goremykin V.I. Diagnostika xronicheskoy bolezni pochek v ranney stadii // Klinicheskaya nefrologiya. – 2014. - № 2. – S. 52–55.
3. Axmedova N.Sh. Otsenka funktsionalnogo sostoyaniya pochek u patsientov s izbytochnoy massy tela i ojreniem // Biologiya va tibbiyot muammolari. Samarkand, 2018. – №4 (104). – S.15-18
4. Gornostaeva Ye.Yu. Vliyanie vegetativnoy nervnoy sistema na razvitie xronicheskoy bolezni pochek u bolnyx metabolicheskim sindromom: / Avtoref. diss. ... kand. med. nauk. - M., 2010. – 25 s.
5. Gulov M.K., Abdullaev S.M., Rafiev X.K. Kachestvo jizni u patsientov stradayuxix xronicheskoy bolezni pochek // Rossiyskiy mediko-biologicheskij vestnik im akademika I. L. Pavlova. – 2018. - № 4. – S. 493–499.
6. Ye.S. Olenko, A.I. Kodochigova Faktori riska razvitiya xronicheskoy bolezni pochek ISSN 1810-0198 // Vestnik TGU, t.17, vyr.4, 2012 – S 1293-1299.
7. Kitaeva Yu.Yu. Xronicheskie zabolevaniya organov mochevoy sistema u detey i podroskov // Sibirskiy meditsinskiy jurnal, 2010, Tom 25, S-77-78.

Qabul qilingan sana 09.09.2022